

KULOLCHILIKDA ISLIMIY NAQSHLARNING AKS ETISHI

Karimova Barno Abduqodirovna

*Shahrisabz davlat muzey-qo`riqxonasi
rassom-ta`mirchisi.*

Anotatsiya: *Ushbu maqola mazmuni san`atni rivojlantirishga hissa qo`shish, kulolchilikning tarixi, kelib chiqishi, tayyorlanishi, inson turmush tarzidagi o`rni, hozirgi kunda kulolchilikning nodir san`at uslubiga aylanganini tariflashdan iborat.*

Аннотация: *Цель данной статьи — внести вклад в развитие искусства, описать историю гончарного дела, его происхождение, изготовление, его роль в образе жизни человека и то, как гончарное дело стало редкой формой искусства в наши дни.*

Abstract: *The purpose of this article is to contribute to the development of art, describe the history of pottery, its origin, preparation, its role in human lifestyle, and how pottery has become a rare art form today.*

**Kalit so`zlar:** *Kulolchilik, naqsh, uslub, islmiy, grix, loy, O`rta Osiyo, kulolchilik maktabi, Samarqand, Buxoro, Farg`ona, Xorazm, asr, neolit.*

Asosiy qism: Eng avvalo kulolchilikni kelib chiqish tarixi haqida to`xtilib o`tiladi. Kulolchilik — hunarmandlikning loydan turli buyumlar tayyorlaydigan turi (terrakota, sopol idish, qurilish materiallari va boshqalar). Kulolchilikda asosiy xom ashyo — tuproq. Kelib chiqishi va tarkibi turlicha bo`lgan tuproqlardan turli xil kulollik buyumi yasash jarayoni.

Loy qancha ko`p pishitilsa, sopolning sifati shuncha yaxshi bo`ladi. Kulolchilikda asosiy qurol kulollik charxi, usta unda idishlar tayyorlaydi va ularga shakl beradi. Tayyorlangan idishlar quritilib, xumdonda qizdiriladi. Idishlarning turlariga ko`ra, xumdondalar ham turlicha (katta-kichik) bo`lishi mumkin. Sirlanadigan idishlar sirlanganidan so`ngyana bir bor xumdonda qizdiriladi. Odatda, kulollar ma`lum idishlar ishlab chiqarish bo`yicha ixtisoslashgan bo`ladilar (masalan kosagar, ko`zagar, koshinpaz, tandirchi va boshqalar).

Insonlar kulolchilik bilan neolit davridan beri shug`ullanib keladi. Maxsus loyli buyumlar qo`ldayasalgan, quritib olovda qizdirilgan. Kulolchilikda ishlatiladigan tuproq jahonning hamma yerlarida mavjudligi deyarli hamma xalqlarda kulolchilikning kengtarqalishini ta`minladi. Kulolchilik bilan dastlab ayollar shug`ullangan, kulollik charxining paydo bo`lishi bilan erkaklar ham bu ishga jalb qilingan. Idishlar maxsus o`choq va xumdondalarda pishirilgan. Kulolchilikning sodda usullari Osiyoning tog`lik hududlarida yashovchi xalqlarda hozir ham mavjud. Neolit davriga oid qarorgohlarning qazib topilgan qoldiqlari o`sha davrda idishlarning tagi uchli qilib tayyorlanganligini ko`rsatadi (idishlar yerga suqib qo`yilgan). Neolit davrida Sharq mamlakatlarida,

Yunonistonda nafis sopol idishlar tayyorlash, sopoldan me'morlikda foydalanish avj oladi. Sirlash usullari kashf etilgach, kulolchilik buyumlarining badiiy qiymati oshib bordi.

Tayyorlanishi. Tarixi. O'rta asrlar. Afrosiyob va O'rta Osiyoning boshqa yerlarida topilgan arxeologik qazilmalar 9-12-asrlarda kulolchilik bu yerlarda ancha rivojlanganligini ko'rsatadi, 13-asrda mo'g'ullar hujumlari oqibatida nisbatan sekin rivojlangan kulolchilik 14—16 asrlarda ancha taraqqiy etdi. Natijada Xorazmshoxlar davri va Oltin O'rda davrida kulrang spool idishlar xalq orasida keng tarqaldi. O'rta Osiyoning bo'linib ketishi, o'zaro aloqalar susayishini keltirib chiqardi, lekin hunarmandchilik (ayniqsa, kulolchilik) rivojlanishda davom etdi. Turli joylarda kulolchilikning turlicha uslublari vujudga keldi. Xalq ustalari ko'plab idishlar tayyorlash bilan birga ularni yuksak did bilan bezadilar. Rossiyadan ko'plab chinni mahsulotlar keltirilishi O'rta Osiyo kulollari bozorini birmuncha susaytirdi. Biroq arzon sopol idishlarga bo'lgan talab, ayniqsa, me'morlikda kulolchilik mahsulotlarining keng qo'llanishi kulolchilikning uzluksiz rivojlanishini taqozo etdi. O'rta Osiyoda, ayniqsa, o'zbeklar va tojiklar yashaydigan joylarda kulolchilik taraqqiy etdi. Qoratog', Panjikent, Samarqand, Kitob, Shahrisabz, G'ijduvon, Xorazm, Toshkent, G'urumsaroy, Rishtonda sopol idishlarni sirlab bezatishning o'ziga xos uslublari vujudga keldi. Bu markazlarda tayyorlangan kulolchilik buyumlari pishiq, chiroyli, nafis siri, ko'rkam naqshlari bilan diqqatni tortadi.⁸

XX asr 20-asrning 20-yillaridan kulollar mehnatini tashkil etishga e'tibor berildi. Toshkentda tajriba kulollik, Samarqandda kulollik ustaxonalari ochildi, Toshkentda o'quv ishlab chiqarish, badiiy kulolchilik maktabi ishga tushdi (1932), qisqa muddatli kurslar tashkil qilindi, kulollar tayyorlash, ularning malakalarini oshirish yo'lga qo'yildi. T. Miraliyev (Toshkent), R. Egamberdiyev, A. Hazratqulov (Shahrisabz), Muhammad Siddiq, Usmon Umarov (G'ijduvon) singari kulollar yoshlarga ta'lim berdi. Kulolchilikni tadqiq etish, rivojlantirish hamda yoshlardan kulollar tayyorlashda O'zbekiston xalq rassomi Muhiddin Rahimovning xizmatlari katta. Arxeologik materiallar kulolchilik mahsulotlarining asrlar davomida takomillashib borganini ko'rsatadi. Davr kulolchilik mahsulotlariga, uning turi va bezaklariga katta o'zgarishlar kiritdi. O'tmishda tayyorlangan shamdon, qorachiroq, sarxona, jomashov, xum singari sopol idishlarga ehtiyoj qolmadi. Guldon, tovoq, lagan kabi sopol idishlar va buyumlarga ehtiyoj katta. Me'morlikda ham kulolchilik mahsulotlari (koshin, parchin va boshqalar) keng ko'llanilmoqda. Sopol lagan (10-asr, Afrosiyob). Budrochtepadan topilgan sopol idishlar (Surxondaryo). Kulollik buyumlari (20-asr). Hozirgi kunda badiiy bezatish usuli, shakli va tayyorlanish usullariga ko'ra quyidagi kulolchilik maktablari mavjud: Farg'ona (asosiy markazlari — Rishton, G'urumsaroy), Buxoro-Samarqand

⁸Ushbu maqolada O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Ushbu maqola chaladir. Siz uni boyitib, (<https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Kulolchilik&action=edit>)

(asosiy markazlari — Samarqand, Urgut, G'ijduvon, Uba), Xorazm (asosiy markazlari — Madir, Kattabog' qishloqlari), Toshkent.

Har bir maktab o'zining rivojlanish va ijodiy tamoyillari, yetakchi markaz va ustalari, o'zigagiva xos xususiyatlariga ega bo'lish bilan birga asosiy badiiy umumiylikni ham saqlagan. Farg'ona (Rishton)da kulolchilikning an'anaviy badiiy va ishlab chiqarish usullari qayta tiklandi, ishkrri sir tayyorlash yo'lga qo'yildi. M. Ismoilov, I. Komilov, U. Ashurov, U. Qosimov, Sh. Yusupov, A. Nazirov, M. Saidov va boshqa ustalar yaratgan buyumlar (lagan, kosalar, don mahsulotlari uchun katta xumlar) shakl jihatidan ham, bezak jihatdan ham rangbarangdir. G'urumsaroy kulolchilik buyumlariga bezakning mahobatli oydinligi va soddalik xosdir, bu maktab vakili usta M. Turopov sir tayyorlashdan tortib to naqsh chizishgacha bo'lgan barcha ishlarni faqat an'anaviy usulda bajargan, bu an'anani uning shogirdi V. Buvayev va boshqalar davom ettirmoqda, yangi ijodiy yangiliklar yaratishda izlanmoqda (jumladan, mahobatli laganlar hajmini kichraytirish va boshqalar).

Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabi buyumlarining jarangdor nafisligida qo'rg'oshinli sir va sarg'ish-yashil, jigarrang bo'yoqlar muhim o'rin tutadi. "Afrosiyob sopoli" an'analarga asoslanib tayyorlanilgan buyumlar bezagida o'simliksimon naqshlar yetakchilik qiladi, handasiy naqshlar, hayvonlar tasvirlari kam ishlatiladi.⁹ Ular, asosan, G'ijduvon kulolchiligida qo'llanadi. G'ijduvon,

Shaxrisabz ustalari mo'yqalamda ishlasalar, Urgut, Denov ustalari chizma naqshlarni ko'p qo'llaydilar. G'ijduvonlik aka-uka Alisher va Abdulla Narzullayevlar an'analarni saqlash,

rivojlantirish va vorislarga yetkazishda samarali mehnat qilmoqda. Ustalar idishlar tubiga hayvonlarning soddalashtirilgan shakli yoki ayrim qismlarini joylashtiradilar ("dumi burgut", "murg'i safid", "boyqush", "guli tovu" va boshqalar), bu shakllar gulsimon naqshga o'xshab ketishi bilan diqqatga sazovor. Narzullayevlar yaratgan buyumlarda yangilikni his qilish, an'anaviy shakllarga erkin munosabatda bo'lish kabi xususiyatlar aniq ko'zga tashlanadi. Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabi boshqa maktablardan sopol xushtak o'yinchoylar ishlanadigan markazining borligi bilan ajralib turadi. H. Raximova an'analarni uning o'g'illari va shogirdi K. Boboyeva davom ettirmoqda, ularning ijodida an'anaviylikni saqlagan holda o'ziga xos mahorat ham kuzatiladi, bu ranglarda, shakl mujassamotida, yechimning mukammalligi va o'lchamlarning barqarorligida namoyon bo'ladi.¹⁰

Usta A. Muxtorov ishidan namuna (1978, Samarqand). Xorazm kulolchilik maktabi o'ziga xos badiiyligi, bezaklar rangi va ishlanish uslubi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi; uning milliy shaklli o'ziga xos buyumi bodiyadir; naqsh mujassamoti handasiy va o'simliksimon naqshlardan iborat, buyumning markaziy qismiga arabeska girih tushirish ushbu maktabga xos uslublardan. Usta R. Matchonov (Madir qishlog'i)

⁹ Pugachenkova G. A., Rem pel L. I., Ocherki iskusstva Sredney Azii, M., 1982; O'zbekiston san'ati, T., 2001.

¹⁰ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.

buyumlarga to'q rang ishlatgan, buyum bezagida havo rang yoki rangning o'ziga xos to'q tusi ustunlik qiladi. S.Otajonov (Kattabog' qishlog'i) oq angobdan ko'proq foydalanadi.

20-asrning 80-yillarida kulolchilik markazlarida ishlar birmuncha susaydi. 1990-yillarda O'zbekistonda an'anaviy qadriyatlarga e'tiborni qaratilishi bu sohaning rivojlanishini ta'minladi. O'zbekiston Respublikasida an'anaviy amaliy san'at asarlari ko'rgazmasi (Respublika yarmarkasi)ga asos solindi. 1995-yildagi 1-Respublika yarmarkasida (BMTning 50 yilligiga bag'ishlandi) barcha kulolchilik maktabining vakillari ishtirok etdi. Ustalardan R. Zuhurov (Denov), M. Turopov (G'urumsaroy), I. Komilov (Rishton), Alisher va Abdulla Narzullayevlar (G'ijduvon), Namoz va No'mon Oblokulovlar (Urgut), R. Matchonov (Xorazm), A. Raximov (Toshkent) maxsus tayyorlangan "Usta guvohnomasi"ga sazovor bo'ldi. 1997-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atni yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni barcha sohalar qatorida kulolchilik an'alarini rivojlanishiga samarali turtki bo'ldi.¹¹

Islimiy — o'simliksimon shakldagi takrorlanuvchi taqsimlardan tuzilgan asosiy naqsh turi. Naqsh asosini tanob, band, barg, butalar tashkil etadi. Bir-biriga uzluksiz ulanib, o'ralib ketadigan chirmoviqsimon, o'simliksimon naqshlarning takrorlanishidan tashkil topadi. Shuning uchun ba'zan ustalar uni o'rama yoki o'simliksimon naqsh deb ham ataydilar. Naqshning xillari ko'p, u qaysi shakl bilan to'ldirilsa, naqsh shu shaklning nomi bilan ataladi: 1. barg, 2. bar-gak, 3. bofta, 4. gul, 5. zanjira, 6. madohil, 7. mehrob va b. yuzdan ortiq sodda va murakkab turlari mavjud. Bu naqsh turlari yanada ko'payib bormoqda. I. naqshlarning hunarmandlik rivojlangan shaharlar nomlari bilan atalgan xillari ham bor: Isfahoni Islimiy Arabi, Mashhadi va b. Turli davrlarda yashagan xalq ustalari yangi-yangi I. xillarini yaratgan va buyumlar be-zagi (ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, miskarlik, zardo'zlik, kulolchilik, gilamchilik, kashtado'zlik va b.)da keng qo'llagan. Shuningdek, uni yanada jozibali qilish maqsadida naqshlarda qo'shimcha materiallardan foydalanilgan. Mas, zargarlik, kan-dakorlik, miskarlikda qimmatbaho toshlar, qahrabo va b. qadalgan. O'rta asr Xorazmning sirlangan kulol idishlarida xalq etnografiyasiga xos bo'lgan san'at bezaklari, islamiy uslubdagi naqshlari, jonzodlarning ts'virlari tushirilgan.¹² Bu uslub O'rta Osiyo, Yaqin Sharq, Hindiston, Eron, Turkiya, Afg'oniston ustalari tomonidan keng foydalanilgan. I. naqshning naqqoshdan katta tajri-ba va mahorat harlarida yog'och uymakori (A. Abdurahimov va b.), miskar (Abdulla hoji vtalab qiladigan murakkab xillari ham bor. Xiva (Paxlavon Mahmud maqbarasi gumbaz osti bag'allari), Buxoro, Samarqand (Registon ansambli, Sherdor Madrasa ravog'i, mehrobi), Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon sha va b.), zardo'z (N. Aminov va b.),

¹¹ Pugachenkova G. A., Rem pel L. I., Ocherki iskusstva Sredney Azii, M., 1982; O'zbekiston san'ati, T., 2001.

¹² O'zbekiston muzeylarining dolzarb muammolari (Xalqaro anjuman materiallari) Shahrisabz -2024.

ganchkor, kashtadoʻz ustalar ishlarida keng qoʻllangan, hozir ham I.naqshlardan keng foydalaniladi. Ayniqsa, Samarqandnig Urgut, Denov hududlarida ustalar islmiy chizma naqshlardan foydalangan.

Naqsh sanʼati Markaziy Osiyo madaniyati tarixida juda qadimdan boʻlib, oʻziga xos namunalari bilan ajralib turadi. Arxeologik topilmalar naqshning xilma-xil va rang-barang namunalaridan Markaziy Osiyoda darak beradi. Meʼmoriy yodgorliklarda naqshning ancha mukammal, oʻziga xos va yuksak sanʼatkorlik bilan yaratilgan nusxalarini uchratish mumkin. Xalq amaliy sanʼatining har bir turida (xususan, kashtadoʻzlik, gilamchilik, oʻymakorlik, ganchkorlik, naqqoshlik kabi) naqshning shakili imkoniyatlari naqadar keng va boy ekanligi yaqqol kuzatiladi. Oʻrta Osiyoda naqshlar keng tarqalgan boʻlib, ular, asosan, 2 turga boʻlina-di: handasiy shakl va chiziqlardan iborat eng murakkab naqsh turi — girih, keng tarqalgan oʻsimliksimon naqsh — islmiy.¹³ Har bir naqshning oʻz qonun-qoidalar bor: taqsim va boʻlaklar aniq oʻlchamda, uygʻun boʻlishi, ranglar did bilan tanlangan, oʻzaro mutanosib boʻlishi lozim. Bu naqqosh ustadan katta maxorat, malaka talab qiladi. Oʻrta Osiyoda eng qadimiy naqsh namunalari, asosan, meʼmoriy inshootlarda saqlangan; naqshning ajoyib namunalari ganch.



Oʻzbekiston hududida olib borilgan arxeologik qazilmalarda topilgan asori-atiqalar kulolchilik oʻzbek amaliy sanʼatining eng qadimiy va yuksak darajada taraqqiy etgan tarmoqlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Oʻzbekistonning asosiy kulolchilik maktablari bir necha yuz yillar davomida shakllangan boʻlib, ular orasida uchta asosiy hisoblanadi: Fargʻona kulolchilik maktabi —

Rishton, Gʻurumsaroy, Andijon va Qoʻqonda markazlari bor; Samarqand-Buxoro kulolchilik maktabi — Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Gʻijduvon, Urgut va Kattaqoʻrgʻonda markazlari bor; shuningdek Xorazm kulolchilik maktabi — Xivada, Kattabogʻda va Chimboyda markazlari bor. Hozirgi kungacha faoliyat yuritib kelayotgan kulolchilik ishlab chiqarish markazlari Rishton, Gʻijduvon, Xiva, Samarqand, Gʻurumsaroy, Shahrisabz, Kasbi, Urgut va Toshkentda mavjud. Yetakchi markazlarga oid quyma va noquyma kulolchilik shu hududning oʻzigagina xos boʻlgan shakl, naqsh-bezaklar va koloritga ega. Gʻurumsaroy kulol ustalarining ishlarida sopol biroz qoʻpolroq boʻlsa-da, ular naqsh kompozitsiyalaridagi yaxlitlik va buyum chekkasi boʻylab bir-biriga qaratib ishlangan juft naqshlar bilan eʼtiborni tortadi.

Gʻurumsaroy kulollik buyumlariga moviy rangda bezak berilsa, albatta asosiy tagrang oqish ranglar boʻladi, agar kishi diqqati oq rangdagi naqshlarga qaratilsa, unda moviy rang oʻz-oʻzidan asosiy tagrangga aylanadi. Yogʻoch va toshni oʻyib, baʼzan boʻyab ishlangan. Naqsh hisobiga keng taraqqiy etdi, naqqoshlik jadal

¹³ O.N.Shomurodov. "Tasʼviriy sanʼat tarixi". "Durdona" nashriyoti. Buxoro-2021.

rivojlandi. Bino, buyum, idish, kiyim, qurollar aksariyat naqsh bilan bezatildi; masjid, madrasa, maqbaralarni xashamdor qilishda naqsh muqim o'rin egalladi. Shu davrda me'morlikda g'ishtni turlicha qalab naqsh hosil qilish san'ati yuksak darajaga ko'tarildi. Binolarning yog'in tushmaydigan joylari ganch va yog'och o'ymakorligi, bo'yama naqshlar bilan bezatildi. Jumladan, me'moriy yodgorliklardan O'zgandagi maqbaralar(interyer, devor, peshtoq, ravoqlar) g'ishtin nafis naqshlangan. XIV—XV-asrlarda koshinkoriy naqshlar yaratildi (Ko'hna Urganchdagi To'rabekxonim ko'shki, Samarqanddagi Shohizinda ansambli, Dilkusho ko'shki — Ishratxona va boshqalar). Xiva, Buxoro, Qo'qon xonliklari davrida xalq ustalari san'ati ayniqsa shaharlarda o'sdi, naqsh, naqqoshlik ham yanada rivojlandi.

Xudoyorxon o'rdasi (Qo'qon), Sitorai Mohi Xosa (Buxoro), Toshhovli (Xiva) va boshqa binolar mohir ustalar tomonidan nafis naqshlar bilan bezatildi. Bu esa O'rta Osiyoda naqshning o'ziga xos uslublari vujudga kelganligini ko'rsatadi.

Buxoro naqshi eng murakkab, mukammal va jozibador bo'lib, ko'p asrlik ijodiy mehnat an'analari samarasidir; Naqsh bezak bo'lish bilan birga binokorlikning ajralmas qismiga aylangan. Juda murakkab girihlar puxta o'lcham bilan ishlangan, gul naqshlari o'ziga xosligi bilan (gul naqshda vaza, kosa, guldonlar uslublashtirilib, ularda gul butalari aks ettirilgan, yaproq, mevalar tasvirlari bir maromda berilishiga alohida e'tibori bilan) ajralib turadi. Xiva naqshi (yulduzlar hosil qiluvchi girihlar orasida o'simliksimon gullarni mahorat bilan joylashtirilishi, barg shaklidagi bezaklarning ko'pligi, o'simliksimon tasvirlar zich, ko'p va turli-tumanligi bilan mashhur. Farg'ona naqshi Marg'ilon, Xo'jand, Qo'qon, Farg'ona, Namangan va boshqa shaharlarda vujudga kelgan uslublardan iborat. Me'moriy yodgorliklar (Qo'qondagi Modarixon daxmasi va Daxmai shohon), XIX asrda yaratilgan naqshlarda sodda rang-baranglik (sariq, qizil, yashil, qora, oq, ko'k, pushtirang), naqsh qismlarining ancha jo'nligi ko'zga tashlanadi. Farg'ona naqshining o'ziga xos jihatlari: bino devorlariga mehrobi namoyonlar ishlanib, ular hoshiya naqsh bilan bir-biridan ajratiladi, hoshiyalar orasiga girih, qolgan qismlarga o'simliksimon gullar ishlanadi. Ularda Buxoro, Xiva naqshlarining ta'siri seziladi. XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi naqshlarda yevropanaqshlarining ham ta'siri bor.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, yurtimizning madaniyat va ma'rifiyatini yuksaltirishga hissa qo'shish, qadriyatlarimiz, tarixiy manbaalarimizni asrab-avaylash maqsadida madaniyat maskanlarini ko'paytirish, kulolchilik maktablarini rivojlantirish va yoshlarga san'atdan boxabar etish zarur. Kulolchilik ham san'atning bir bo'lagi hisoblandi

“San'at bu tizim emas, balki bir organizmdir”- egan edi Osvald Shpengler.¹⁴ San'at jamiyat hayotining boshqa hodisalari (fan, mafkura, axloq) bilan ma'lum darajada bog'liqlikdir.

¹⁴ Akbar Hakimov. "Moziydan sado" "Tarixiy ong: uygu'nluk yoxud parchalanish" № 3/87 2020. B 1-7

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akbar Hakimov."Moziydan sado " "Tarixiy ong :uyg`unlik yoxud parchalanish"№ 3/87 2020. B 1-7
2. O`zbekiston muzeylarining dolzarb muammolari(Xalqaro anjuman materiallari) Shahrizabz -2024.
3. O.N.Shomurodov. "Tas`viriy san`at tarixi". "Durdona" nashriyoti. Buxoro-2021.
4. Pugachenkova G. A., Rempel L. I., Ocherki iskusstva Sredney Azii, M., 1982; O`zbekiston san`ati, T., 2001.
5. Pugachenkova G. A., Rempel L. I., Ocherki iskusstva Sredney Azii, M., 1982; O`zbekiston san`ati, T., 2001.
6. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.